Abstract: This article analyzes the scientific foundations of economic reforms carried out in Uzbekistan aimed at liberalizing wholesale and exchange trade and regulating these processes. The study examines the organizational and legal framework of entrepreneurial entities, their financial resources and liabilities, mechanisms of accounting for income and expenses, as well as the processes of forming final financial results. In addition, the study highlights the accounting of taxes and mandatory payments, standards for preparing financial statements, and their impact on the efficiency of wholesale and exchange trade. The findings of this research provide theoretical and practical conclusions for ensuring financial stability of enterprises under trade market liberalization, developing a cashless settlement system, and improving licensing practices.

Key words: wholesale trade, retail trade, exchange, accounting, enterprise, cashless settlement, license.

Аннотация: В данной статье проанализированы научные основы экономических реформ, проводимых в Узбекистане в целях либерализации оптовой и биржевой торговли, а также регулирования данных процессов. В исследовании изучены организационно-правовая база деятельности субъектов предпринимательства, их финансовые ресурсы и обязательства, механизмы учета доходов и расходов, а также процессы формирования окончательных финансовых результатов. Кроме того, раскрыты вопросы учета налогов и обязательных платежей, стандарты составления финансовой отчетности и их влияние на эффективность оптовой и биржевой торговли. Полученные результаты исследования позволяют выработать теоретические и практические выводы по обеспечению финансовой устойчивости предприятий в условиях либерализации торгового рынка, развитию системы безналичных расчетов и совершенствованию практики лицензирования.

Ключевые слова: оптовая торговля, розничная торговля, биржа, расчеты, предприятие, безналичные расчеты, лицензия.



KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida milliy iqtisodiyotning bozor tamoyillari asosida shakllanishi va rivojlanishi yo'lida muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Bu jarayonda ma'rifatli (sivilizatsiyalangan) bozor iqtisodiyotini barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan samarali tizimni shakllantirmasdan turib, iqtisodiy barqarorlik va xalq farovonligiga erishib bo'lmaydi". Mazkur yondashuv savdo sohasini chuqur isloh qilish, tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish va huquqiy-me'yoriy bazani zamonaviy talablar darajasiga olib chiqishni taqozo etadi.

Savdo tizimi mamlakat iqtisodiyotining ajralmas bo'g'ini hisoblanib, u ulgurji va chakana segmentlar orqali faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, mazkur ikki shaklning o'zaro farqlari va ularning iqtisodiy muomaladagi o'rni aniq belgilanishi zarur. Amaldagi qonun hujjatlarini tahlil etar ekanmiz, ulgurji va chakana savdo o'rtasidagi aniq chegaralarni huquqiy jihatdan belgilashda ayrim bo'shliqlar mavjudligi kuzatiladi. Masalan, chakana savdo jarayonida mahsulotni sotib olish uchun naqd pul yoki oddiy savdo kvitansiyasi yetarli bo'lsa, ulgurji savdoda bunday tartib sezilarli darajada murakkab va huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Xususan, ulgurji savdo operatsiyalarini amalga oshirishda shartnoma tuzish, hisob-faktura, yo'l varaqasi va boshqa zaruriy hujjatlarni rasmiylashtirish talab etiladi.

Bu esa o'z navbatida ulgurji savdoning ko'proq yuridik shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Ugurji savdoning huquqiy tartibga solinishi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitob intizomini kuchaytiradi, shaffoflikni ta'minlaydi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Shu boisdan ham, savdo faoliyatining mazkur turi davlat tomonidan qat'iy nazorat ostida olib boriladi. Chakana savdo esa asosan yakka tartibdagi iste'molchilar ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi soha bo'lib, unda huquqiy jarayonlar nisbatan soddalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, ulgurji va chakana savdo tizimining farqlarini ilmiy asosda o'rganish, ularning iqtisodiy mazmunini chuqur tahlil qilish hamda huquqiy me'yorlarni mukammallashtirish O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo sohasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy tahlil usuli yordamida O'zbekistondagi ulgurji va chakana savdo tizimining rivojlanish xususiyatlari boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu orqali milliy savdo tizimidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, amaliyotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan ilg'or tajribalar o'rganildi.

Analitik va statistik tahlil usullari savdo bozorida mavjud ko'rsatkichlarni qayta ishlash, ularning o'sish dinamikasini aniqlash va asosiy tendensiyalarni ko'rsatishga xizmat qildi. Shu bilan birga, tanlama kuzatish usuli orqali ayrim xo'jalik subyektlari faoliyatidagi moliyaviy natijalar, soliq hisoboti va huquqiy tartibotlar o'rganildi.

Savdo tizimini chuqurroq tahlil qilishda ko'p omilli ekonometrik yondashuvdan foydalanilib, narx, talab, taklif, soliqlar va bozor infratuzilmasi kabi determinantlarning o'zaro ta'siri o'rganildi. Modellashtirish va iqtisodiy-matematik usullar turli stsenariylarni yaratish va ularning samaradorligini baholashda qo'llanildi.

Noaniqliklarni hisobga olish uchun noaniq to'plam nazariyasi, kelajakdagi tendensiyalarni belgilashda esa prognozlash metodlaridan foydalanildi. Natijada, mazkur metodologik asos tadqiqotda nazariy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Naqd yoki naqd pulsiz hisob-kitob turi ulgurji va chakana savdoning ajralish mezonini sifatida amal qilmay qo'ydi. Bugungi kunda chakana savdoga haqiqatda naqdsiz hisob-kitob yo'li bilan tovarlarni hech bir cheklovlarisiz sotish imkoniyati berildi. Bu esa juda yaxshi, ham so'm qadrini mustahkamlaydi, ham naqd va naqdsiz pullar qiymatini yaqinlashtiradi.

Ulgurji savdoda korxonalarida ham ahvol shunday. Bir tomondan, tovarlar faqat tuzilgan shartnomalar asosida va o'zaro hisob-kitoblarning naqd pulsiz shaklida ulgurji sotilishi mumkin (407-son Nizomning 10-bandi). Ikkinchi tomondan, ulgurji savdo korxonalariga o'zining firma do'konlari orqali naqd pulga mayda ulgurji va chakana savdoni amalga oshirishga ruxsat beriladi (Prezidentning 30.06.2003-yildagi PF-3270-son Farmoni 4-bandi).

Demak, ko'rib turganimizdek, bugungi kunda ulgurji va chakana savdo o'rtasidagi to'siq borgan sari yo'qolib boryapti. Nazariyada ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini ulgurji savdo korxonalariga, ular esa chakana korxonalarga, ushbu korxonalar iste'molchilarga sotishadi deb ta'kidlanadi. Biroq, shohidi bo'lganimizdek, amalda ulgurji korxonalar chakana savdo bilan shug'ullanmoqda, chakana savdo korxonalari esa tovarlarni



naqd pulsiz hisob-kitob yo'li bilan – plastik kartochkalar orqali hech bir cheklovlarisiz realizatsiya qilishlari mumkin.

Bularning hammasi tadbirkorlik faoliyatini yuritish shartlarining liberallashtiruviga olib kelishidan dalolatdir. Biroq, bu ijobiy jarayonlarda ulgurji va chakana savdo faoliyatiga soliq solishning turli rejimlarining mavjudligi ba'zida muammolar tug'dirmoqda.

Bir yo'la ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan savdo korxonalari YaSTning yagona stavkasi (5%) mavjud bo'lgan taqdirda ham alohida-alohida hisob yuritishlari shart, chunki bu YaSTning eng kam miqdorini belgilash zaruriyatiga asoslangan.

Ulgurji savdo chakana savdodan ustunlik qilganda, eng kam miqdor yer solig'ining 3 baravaridan kelib chiqib hisoblanadi. Agar chakana savdo ulgurji savdodan ustunlik qilsa, qat'iy belgilangan soliq summasidan hisoblanadi. Qanchalik g'alati tuyulmasin, biroq bitta savdo korxonasida yil mobaynida eng kam soliq solinadigan turli ob'ektlar mavjud bo'lishi mumkin.

Soliq kodeksida belgilanishicha, savdo korxonalari (ulgurji va chakana) xodimlarning sonidan qat'i nazar yagona soliq to'lovini (YaST) to'lovchilardir. Bu, bizning fikrimizcha, to'g'ri bo'lsa-da, biroq bunda o'ziga xos murakkabliklar mavjud.

Chakana savdo korxonalari uchun soliq to'lovchining joylashgan joyiga qarab 1%dan 4%gacha, ulgurji savdo korxonalari uchun 5% YaST stavkasi belgilangan. Ulgurji va chakana savdo korxonalari uchun turli stavkalarining mavjudligi, shuningdek chakana savdo uchun ularning joylashgan joyiga qarab tabaqalashtirilishi muammolarni yuzaga keltiradi. Birinchidan, bu soliq ma'muriyatchiligini murakkablashtiradi. Ikkinchidan, soliq yukini kamaytirish uchun savdo korxonalarini yanada past stavkalarni qo'llashga undaydigan sharoitlar kelib chiqadi.

1-jadval. Ulgurji va chakana savdoni qiyoslash jadvali

		Ulgurji savdo	Chakana savdo
1	Vikipediya bo'yicha xalqaro tushuncha	Tovar pirovard foydalanish uchun emas, balki biznes ehtiyojlari uchun sotiladigan, bunda xaridor identifikatsiyalanadigan tashkilotlar o'rtasidagi savdo	Pirovard iste'molchiga tovarlarni sotish
2	O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bo'yicha tushuncha	Tijorat maqsadlarida yoki o'z ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanish uchun hisob-kitoblarning naqdasiz shaklida xarid qilinadigan tovarlarni sotish	Savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun, undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqsiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirish
3	Litsenziyalash	Hokimiyat tomonidan amalga oshiriladi	Talab etilmaydi
4	Ustav fondi miqdori	EKIHning 3 500 baravaridan kam emas, unda pul mablag'lari – EKIHning 1 200 baravaridan kam bo'lmashligi lozim	Cheklanmagan
5	Savdo faoliyati sub'ektlari	Yuridik shaxslar	Yuridik va jismoniy shaxslar
6	Naqd yoki naqdsiz hisob-kitob	Naqd pulsiz hisob-kitob; o'zining firma do'konlari orqali naqd hisob-kitob	Naqd hisob-kitob; oylik tovar oborotidan 10% doirasida naqdsiz hisob-kitob; umumiy tovar oboroti hajmining 10%idan ortiq miqdorda naqdsiz hisob-kitob – faqat ijtimoiy soha tashkilotlari uchun
7	Plastik kartochka bo'yicha realizatsiya qilish	Mumkin	Mumkin
8	Realizatsiya hajmi	Cheklanmagan	Donalab yoki kichik miqdorda
9	Soliq solish	Yagona soliq to'lovi (YaST)	Yagona soliq to'lovi (YaST)
9.1.	YaST solish ob'ekti	Tovar oboroti	Tovar oboroti
9.2.	Stavka miqdori	5%	1%dan 4%gacha



9.3.	Eng kam to'lanadigan soliq miqdori	Yer solig'ining 3 baravari	Savdo bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliq
9.4.	Bo'nak to'lovlari	5%	Mavjud emas

Bugungi kunda ulgurji va chakana savdo o'rtasidagi to'siqlarning bartaraf etilishida ularga soliq solish bobida tafovutlar va murakkabliklar mavjud. Shu sababli savdo faoliyati uchun sharoitlarni yanada liberallashtirish yo'lida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1) ulgurji va chakana savdo tushunchalari ta'riflarida farqlarni olib tashlash, birinchi navbatda, ulardan naqd-naqdsiz hisob-kitob shakllari va realizatsiya qilingan tovarlar miqdori mezonlarini chiqarib tashlash kerak. Keyinchalik ulgurji savdoni litsenziyalashni bosqichma-bosqich bekor qilish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish;

2) barcha savdo korxonalari – ulgurji, ulgurji-chakana, chakana savdo korxonalari uchun joylashgan joyiga qarab, YaSTning yagona stavkasini joriy qilish, masalan, barcha imtiyozlarni bekor qilish bilan tovar oborotidan 3%. Budjet yo'qotishlari bo'lmasligi uchun hisob-kitob asosida stavka miqdorini aniq belgilash lozim;

3) barcha savdo korxonalari uchun YaSTning yagona eng kam miqdorini joriy qilish. Bu, bizning fikrimizcha, biron-bir ob'ektiv ko'rsatkichga tutashgan qat'iy belgilangan soliq bo'lishi mumkin;

4) barcha savdo korxonalari uchun (ilgari faqat ulgurji korxonalar uchun bo'lgan) YaST stavkasi miqdorida yagona bo'nak to'lovini joriy qilish.

Oldingi yillarda ulgurji savdo faqat naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun amalga oshirilgan. Ammo Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-martdagi 201-son qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. O'z ishlab chiqargan tovarlarni boshqa yuridik shaxslarga, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlarga naqd pulga sotish imkoniyati paydo bo'ldi.

Ulgurji savdoni davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad birinchi navbatda alohida hisob-kitob qilish tartibini belgilash edi. Chunonchi, ulgurji savdoga litsenziya olgan korxonalargina o'zlari ishlab chiqarmagan tovarlarni faqat naqd pulsiz hisob-kitob qilish yo'li bilan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga sota olardi. Boshqa tomondan, ulgurji savdoga litsenziyasi bo'lmagan chakana korxonalarga o'tgan oyda tovar oborotining 10%i doirasida naqd pulsiz hisob-kitob qilish yo'li bilan tovarlarni sotishga ruxsat berilardi.

Birinchidan, yuridik shaxslarga o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni boshqa yuridik shaxslarga, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarga naqd pulga sotishga ruxsat berildi. Naqd hisob-kitob qilish sharti – taraflar o'rtasida shartnoma tuzilgan bo'lishi, bitta shartnoma doirasida qabul qilinadigan summa 100 BHMdan kam bo'lishi kerak, nazorat kassa mashinasi cheki albatta rasmiylashtiriladi, pullar esa inkassatsiya qilinadi yoki bankka mustaqil ravishda topshiriladi.

Ikkinchidan, endi ulgurji savdoni (yuridik shaxsning boshqa yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga tovarlarni sotishi) naqd va naqd pulsiz hisob-kitob qilish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.

Bunda ham naqd pulda hisob-kitob qilganda shartnoma tuzish, nazorat kassa mashinasidan foydalanish, olingan naqd pulni inkassatsiya qilish (bankka topshirish) zarur, bitta shartnoma doirasidagi summa esa 100 BHMdan oshishi mumkin emas.

Uchinchidan, chakana savdo korxonalari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga tovarlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga naqd pulsiz shaklda, shu jumladan korporativ plastik kartalar orqali sotishga ruxsat berildi. Bunda tovar oborotidagi naqd pulsiz bitimlar ulushiga qarab belgilanadigan cheklovlar bekor qilindi.

Shu bilan birga, tomonlar o'rtasida shartnoma tuzilishi va bitta shartnoma bo'yicha summa 100 BHM dan kam bo'lishi kerak, nazorat kassa mashinasi cheki tuzilishi va pul mustaqil ravishda undirilishi yoki bankka topshirilishi kerak.

O'zbekistonda tovarlar ulgurji savdosi naqd pulsiz va naqd pul shaklida ham, korporativ plastik kartadan foydalangan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

Naqd pulda ulgurji savdoni bitta shartnoma doirasida kassa apparatlaridan foydalangan holda 100 BHM gacha bo'lgan miqdorda amalga oshirishga ruxsat beriladi. Jarayon tugagandan so'ng naqd pul mustaqil ravishda olinishi yoki bankka topshirilishi kerak.

O'zbekistonda ulgurji savdo litsenziyasi 2019-yil 1-yanvardan bekor qilindi. Ammo alkogolli mahsulotlar ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyatini majburiy litsenziyalash saqlanib qolmoqda.

Mahalliy ishlab chiqarilgan pivo va tabiiy vinolarning ulgurji savdosi uchun litsenziya talab qilinmaydi.

Ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizomning (VMning 26.11.2002-yildagi 407-son Qarori bilan tasdiqlangan) 19-bandiga muvofiq tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha sotish chakana savdo korxonalari tomonidan o'tgan oyda oylik tovar aylanmasi umumiy hajmining 10%i doirasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda tovarlar sotilishini hisoblab chiqish har bir oy bo'yicha alohida amalga oshiriladi.



Tovarlarni oldingi oylar hisobiga sotishga yo'l qo'yilmaydi. Chakana savdo korxonalari tovarlarni tovar aylanmasi umumiy hajmining 10%idan ortiqcha naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha faqat ijtimoiy soha tashkilotlari va muassasalari (bolalar, davolash muassasalari, qariyalar uylari, bolalar uylari, nogironlar uylari, o'quv va ma'rifat yurtlari)ga sotishga ruxsat beriladi.

Korporativ plastik kartadan foydalanganda xarid miqdori bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q. Tovarlarni yuridik shaxslarning korporativ plastik kartochkalari bo'yicha realizatsiya qilish chakana savdo korxonalari tomonidan ko'rsatilgan bandning uchinchi va to'rtinchi xatboshilarida nazarda tutilgan cheklovlersiz amalga oshirilishi mumkin.

Agar chakana savdo korxonasi naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha tovarlar realizatsiyasini qonunchilikda nazarda tutilgan cheklashlar doirasida amalga oshirsa, ulgurji savdo faoliyatini amalga oshirish litsenziyasini olish talab etilmaydigan mazkur tovar aylanmasiga soliq solish maqsadida chakana savdo sifatida qaraladi va unga chakana savdo korxonalari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari bo'yicha soliq solinadi.

Yuqorida keltirilgan normalar faqat tegishli mezonlarga javob berishi, ya'ni nazorat-kassa mashinalari va hisob-kitob terminallari bilan jihozlangan turg'un savdo shoxobchalari orqali realizatsiyani amalga oshirishi, naqd pul tushumini inkassatsiya qilish uchun shartnomaga ega bo'lishi lozim bo'lgan chakana savdo korxonalariiga tatbiq etiladi.

Agar chakana savdo korxonasi naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha tovarlar realizatsiyasini qonunchilikda nazarda tutilgan cheklashlardan ortiq miqdorda amalga oshirgan taqdirda naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha amalga oshirilgan jami realizatsiya ulgurji savdo hisoblanib, uni amalga oshirish uchun litsenziya talab etiladi. Bunda mazkur yuridik shaxsga soliq solish maqsadida ulgurji-chakana savdoni amalga oshiruvchi korxona sifatida qaraladi.

2015-yilning 1-yanvaridan boshlab to'liq hisobot (soliq) davridagi butun tovar aylanmasiga ulgurji hamda ulgurji-chakana savdoni amalga oshiruvchi korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lovi stavkasi qo'llaniladi (soliq solinadigan bazaga nisbatan 5%) (MV va DSQning 3.03.2015 yildagi MM/04-01-32-14/231/214 va 16/3-4061-son axborot xati). Belgilangan soliq stavkasi plastik kartalar bilan to'langan tovar aylanmasidan 5%ga pasayishi mumkin.

Agar tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha realizatsiya qilish o'tgan oy uchun tovar aylanmasi umumiy hajmining 10%idan oshmasa, siz chakana savdo korxonasi hisoblanasiz. Ushbu holda YaST hisob-kitobida alohida ustunlarda 1 va 4%lik stavkalarda chakana tovar aylanmasidan tushumni ko'rsatishingiz zarur. Tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha realizatsiya qilishga ham, savdo shoxobchasining joylashgan joyiga bog'liq holda, 1 va 4 %lik stavkalarda soliq solinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agar tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitob bo'yicha sotish o'tgan oy uchun tovar aylanmasi umumiy hajmining 10%idan oshsa, siz butun 2015 yil mobaynida ulgurji-chakana savdo korxonasi hisoblanasiz va barcha tushumingizga 5%lik stavkada soliq solinadi.

5%lik yagona stavka chakana va ulgurji tovar aylanmasi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish zaruratini istisno etmaydi. Buni savdo faoliyatining u yoki bu turi ustun turgan taqdirda YaSTning eng kam miqdorini hisoblab chiqarish tartibidagi farqlar taqozo etadi.

Agar yuridik shaxsning hisobot choragi yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi:

chakana savdo bo'lsa – u YaSTning eng kam miqdorini aynan shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kelib chiqib hisoblaydi (Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan chakana savdo korxonalari tomonidan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom¹);

ulgurji savdo yoki boshqa faoliyat turi bo'lsa – u hisobot choragi uchun o'zi egallagan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqib YaSTning eng kam miqdorini yer solig'ining 3 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblaydi (Yagona soliq to'lovining eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizom²).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. 2016-yil 13-aprel. № O'RQ-404.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Elektron hujjat aylanishi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 20 –son, 230 –modda; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21. 04. 2021 y., 03/21/683/0375 –son)
3. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi NIZOM 54-son 05.02.1999 y
4. Egamberdiyeva S. R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b.



5. Voxidov S.V. Maxamadiyev A.Voxidov T. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari.-T. «Adabiyot jamg'armasi».2004 y.
6. Umurzaqov D. Biznesda amaliy buxgalteriya hisobi. Darslik. –N.: Sunrise-pro, 2024. – 379 b.
7. Norbekov D., Misirov K., Tashmanov G'. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2018. - 194 b.
8. Accounting Information Systems, Seventh Yedition. James A. Hall, 2011, South Wyeestern Cyengage Learning, USA.
9. Karimov A., Mukumov Z. , Tulayev M. , Kurbanbayev J. , Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma. – T. : "Iqtisod-moliya", 2018 y. – 194
10. Sagl S. Warren, James M. Reyeve, Jonathan Ye. Duchac. Accounting. (ISBN: - 13: 978 - 1 - 133 - 60760 - 1) USA, 2014. 25th Yedition.
11. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
12. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIVAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
13. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
14. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
15. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>